UZA | O‘zbekiston Milliy axborot agentligi

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
O‘zA Ilm-fan bo‘limi

Elektron jurnal
2026-yil yanvar soni №1 (75)

Toshkent-2026

O‘ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI – O‘zA
ILM-FAN BO’LIMI (ELEKTRON JURNAL)

Ilmiy nashr
2026-yil yanvar oyi soni №1 (75)

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Elektron jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan parchalar O‘zA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal)dan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Elektron jurnalga bir yarim oraliqdagi materiallar “Microcoft Word” redaktori, “Times New Roman” shriftida elektron versiya shaklida qabul qilinadi.

Tahrir kengashi

A.Ko‘chimov
A.Asqarov
D.Yu.Yusupova
A.X.Saidov
T.O‘.Aripova
Q.R.Allaev
S.M.Turobjonov
Sh.T.Qudratxo‘ja
N.A.Husanov
N.K.Achilov
G.A.Mardonova
Q.Sh.Omonov
A.S.Sagdullaev
S.S.G‘ulomov
F.G.Nazirov
R.D.Kurbanov
M.H.Rustamboev
N.M.Mahmudov
I.S.Saifnazarov
N.X.Oblomurodov
N.N.G’afforov

Manzilimiz: Toshkent sh., 100000, Buyuk Turon ko‘chasi 42-uy
Tel: (+99871) 233-09-21; (+99899) 833-62-71

2026-yil yanvar soni №1 (75)
Muallif ushbu maqolada mualliflik huquqini saqlab qoladi
https://uza.uz/uz

YANGI O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATINING SHAKLIY-USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI

Shohida Toshtemir qizi MO‘MINOVA
mustaqil izlanuvchi
Alisher Navoiy nomidagi
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
uzbektili@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek bolalar she’riyatida badiiy obraz yaratish va poetik tafakkurning namoyon bo‘lishi tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan yaratilgan obrazlar, ularning tasviriy vositalar bilan ifodalanishi va bolalar tafakkuriga ta’siri o‘rganilgan. Ayniqsa, Dilshod Rajab va Anvar Obidjon kabi ijodkorlarning asarlarida obraz va tafakkur uyg‘unligi alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bolalar adabiyotida estetik tarbiya, obrazning badiiy qiymati va poetik ifoda vositalarining o‘rni haqida ilmiy fikr yuritilgan.

Anvar Obidjon va Dilshod Rajab ijodiy faoliyati misolida badiiy uslub, obraz yaratish, tilda soddalik va estetik mezonlar yoritilgan. Mualliflarning uslubiy yondashuvi va ularning asarlarida bolalar tafakkuriga ta’sir etuvchi jihatlar ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: bolalar she’riyati, badiiy obraz, poetik tafakkur, estetik tarbiya, Dilshod Rajab, Anvar Obidjon, poetik ifoda, bolalar adabiyoti, uslubiy individuallik, badiiy mahorat, obraz, til soddaligi.

ФОРМАЛЬНО-СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

Шохида Тоштемир кизи МУМИНОВА
Независимый исследователь
Университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
uzbektili@mail.ru

Аннотация

В данной статье анализируются особенности создания художественного образа и проявления поэтического мышления в современной узбекской детской поэзии. Рассматриваются образы, созданные авторами, способы их выражения посредством изобразительно-выразительных средств, а также их влияние на детское мышление. Особое внимание уделяется гармонии образа и поэтического мышления в произведениях таких авторов, как Дилшод Раджаб и Анвар Обиджон. В статье с научной точки зрения осмысливаются вопросы эстетического воспитания в детской литературе, художественная ценность образа и роль средств поэтической выразительности.

На примере творческой деятельности Анвара Обиджона и Дилшода Раджаба

освещаются художественный стиль, особенности создания образа, простота языка и эстетические критерии. Раскрываются стилистические подходы авторов и аспекты их произведений, оказывающие влияние на формирование детского мышления.

Ключевые слова: детская поэзия, художественный образ, поэтическое мышление, эстетическое воспитание, Дилшод Раджаб, Анвар Обиджон, поэтическая выразительность, детская литература, стилистическая индивидуальность, художественное мастерство, образ, простота языка.

O‘zbek bolalar she’riyati tom ma’noda XX asr boshlarida yuzaga keldi, bir asr davomida unib o‘sdi, jahon adabiyotining eng sara namunalaridan o‘rgandi. Bolalar shoiri va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar adabiyotimizga ulkan hissa qo‘shdi. Shu bilan birga bolalar adabiy tanqidchiligi, mazkur sohani nazariy jihatdan o‘rganish ham yuzaga kela boshladi. Ilk bora bolalar adabiyoti tarixini iyerarxik jihatdan tadqiq etish va davrlashtirish boshlandi. Yetuk bolalar adabiyoti tanqidchisi R.Barakayev o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini quyidagi to‘rt davrga tasniflaydi:

1. Ilm-ma’rifat va axloq-odob mavzularidagi didaktik asarlar – bolalar kitobxonligi bosqichi.

2. Bolalar uchun yaratilgan dastlabki badiiy asarlar – «paydo bo‘lish» bosqichi.

3. Bolalar uchun maxsus tasnif yetilgan ilk asarlar (maktab, adabiyot darsliklari: alifbo va o‘qish kitoblari) – «tarkib topish» bosqichi.

4. Turli yoshdagi bolalar adabiyotlariga ajratiladigan maxsus bolalar adabiyoti – «shakllanish» bosqichi.

Bu davrlashtirish shartli bo‘lib, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatini aks ettirgan. Bugungi davr bolalar she’riyati ifoda yo‘sini, qahramonlar turfaligi, falsafiy mushohadaga boyligi, shakli va mazmuniy jihatdan o‘zgachaligi bilan ajralib turadi [5;144]. Birinchi bosqichida hali bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar bo‘lmaydi, ular umumadabiyotdagi axloqiy-ta’limiy asarlardan foydalanadilar. Bu «bolalar kitobxonligi» deb baholanadi. O‘zbek adabiyotida axloq-odob va ta’lim- tarbiya masalalariga bag‘ishlangan asarlar shu bosqichga kiradi. Bular didaktik adabiyot namunalaridir. Sababi axloq-odob, ta’lim-tarbiya yoshlikdan o‘rgatiladi. O‘zbek bolalar adabiyotida bolalar uchun yaratilgan alifbo va o‘qish kitoblari nashr etila boshlandi. Binobarin, «O‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishi, avvalo ma’rifatparvarlik harakati bilan bog‘liqdir» [2], – deydi R.Barakayev. Shuningdek, olim istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati haqida, bu davr she’riyatida navqiron avlod namoyondalari asarlari alohida o‘rin tutishi va soni bilan yemas, sifati bilan salmoqdorligi, madhiyabozlik, shiorbozlikdan yiroqligi, shu bilan birga ularning asarlarida kitobxonni o‘ylashga, mustaqil fikrlashga undashi, qadriyatlar deb kelingan narsalarni qayta baholab, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishga o‘rgatishi bilan ajralib turishini aytib o‘tadi [3;386].

Yangi davr bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu burilishni tushunishda obrazlar tahlili masalasiga alohida e’tibor qaratilishi, shaklan va mazmunan yangi tamoyillar bo‘y ko‘rsata boshlaganini sezish qiyin yemas. O‘z navbatida, bolalar adabiyotini keng targ‘ib qiluvchi davriy matbuot, darslik va qo‘llanmalar

ham shu tamoyillar asosida o'zgarib bordi. Milliy bolalar matbuoti mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sib, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirilayotganini ta'kidlash lozim. Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ta'lim-tarbiya, yoshlar siyosatiga oid vazifalar barkamol avlod shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy. Keng miqyosda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat o'quvchi-yoshlar psixologiyasida, balki jamiyat hayotida sog'lom, faol va samarali ijobiy muhitning yuzaga kelishiga asos yaratdi. Istiqlol tufayli ijod erkinligining ta'minlangani esa ana shunday adabiy-madaniy muhitda bolalar adabiyotining rivoji uchun keng imkoniyat yeshiklarini ochib berdi. Rasmiy senzuradan, «ma'muriy boshqaruvdan xalos bo'lgan ijodkorlar bolalar she'riyatini mavzu jihatdan boyitib, g'oyaviy puxta va shaklan rang-barang, uslubi jihatidan serjilo asarlar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bolalar adabiyotining ijodiy qonuniyati kattalar adabiyoti qonuniyatlaridan deyarli farq qilmaydi. Asosiy farq asarlarining kitobxonlarning yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanishidadir. Ayni shu jihatdan kichkintoylar adabiyoti kattalar adabiyotidan alohida ajralib turadi. Bolalar adabiyoti tarbiyaga xizmat qilishiga ko'ra pedagogika fani yutuqlariga tayanadi. Ammo, asarlar tahlili, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini baholashda adabiyotshunoslik va mantiq fanlari nuqtai nazaridan yondoshadi. O'zbek bolalar adabiyoti san'at sifatida insoniyat tarixi bilan tenglashsa-da, fan sifatidagi taraqqiyoti va shakllanish tarixi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bugungi bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismini tashkil etadi. O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixini sho'ro mafkurasi tan olgan ijodkorlar va avvalo, Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi bilan bog'lash an'anasi ana shunday qilib maydonga keldi. Shu sababli ham o'zbek bolalar adabiyoti sho'rolar davridan ancha oldin tashkil topib, ma'lum traditsiyalarga ega bo'lganini e'tirof etgan professor H.Abdusamatov bu adabiyot shakllanishining ilk qadamlarini Hamza nomi bilan bog'laydi: "Hamza boshchiligidagi progressiv kuchlar asosan dunyoviy ilmlar, estetik prinsiplar haqida jiddiy narsalar yozib, ularni asta-sekin bolalar ongiga singdirib borishni afzal ko'rdilar" [1].

Bizningcha, endilikda yosh kitobxonni yaqin o'tmishdagi kabi pand-nasihat mazmuni va ohangidagi she'r va dostonlar bilan «aldagani bola yaxshi» qabilida ovutadigan kitoblar qoniqtirmasligi ijodkorlar oldiga yangi estetik maqsad va vazifa qo'ydi. Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotini kuzatganda lirik tur yetakchilik qilishiga guvoh bo'lamiz. Bu davrda ijod qilayotgan ko'plab shoirlar bolalar she'riyatini sifat jihatidan yangilashga yerishdilar. Ular mustaqillik davri bolalar she'riyatida, sho'ro davridagidan farqli ravishda, tashviqiy xarakterdan tasviriy talqinga o'tish uchun zamin yaratdilar. O'zbek adabiyoti namunalarini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etish ham yangilanayotgan tafakkur taqozosi hisoblanadi. «Badiiy tafakkurning biqiq holga tushib qolishi, – deb yozadi professor Sh.Rizayev, – avvalo, boshqa adabiyotlarni o'rganmaslik, o'z adabiyotiga tanqidiy nazar bilan qaray bilmaslik, qiyoslash, solishtirish imkoniyatidan mahrumlik hisobiga ro'y beradi» [4]. Darhaqiqat, zamonaviy adabiyotshunoslikda har bir muammo jahon adabiyoti kontekstida o'rganilar ekan, tadqiq etilayotgan asarlar orasidagi mental va umummadaniy xususiyatlar yarq etib ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti namunalarini ham jahon bolalar adabiyoti durdonalari

bilan qiyosiy-tipologik o'rganish, qolaversa, ularni bugungi yosh avlod qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, intellektual salohiyatiga mos talqin va tadqiq etish zaruratga aylanmoqda. Yetuk adabiyotshunos olim A. Rasulov X.To'xtaboyev romanlari haqida fikr yuritib, bolalar asarlari tahliliga teran tadqiqotli yangi talqinlar zarurligini ta'kidlaydi. Shunisi e'tiborliki, olim X.To'xtaboyev romanlarini hech ikkilanmay, jahon bolalar adabiyotining mumtoz namunalari, X.Andersen asarlari, rus adibi N.Nosov hikoyalari qatorida sanaydi. Shuningdek, Hoshimjon, Akrom, Zafar, Orifjon singari o'smirlar sho'xlikda, aqlu zakovatda, sayohat va sarguzashtda Tom Soyer (M.Tven), Maugli (Kipling), Chippolino (J.Rodari), Jelsomino (J.Rodari), Gulliverdan (J.Svift) qolishmasligini ta'kidlaydi. Zamonaviy bolalar adabiyotshunosligi bu jihatdan ancha yoshligi o'rinli e'tirozlardan, albatta. Ammo ijodiy ta'sir adabiy aloqalarini o'rganish, yozuvchi-shoirlarning ijodiy tarjimalariga oid qarashlar rivojlanib borayotganini qayd etish lozim. So'nggi o'n yilliklar bolalar adabiyotini nashr yetishda qo'shimcha o'zgarishlarni olib keldi. Bolalar adabiyoti bozoriga ota-onalarning talabi, sotib olish qobiliyatini ko'paytirish uchun seriyali asarlarning ortishi ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, xilma-xillik va ijtimoiy sinf bilan bog'liq bolalar kitoblarining mazmunida o'zgarishlar ro'y berdi (Ching, 2005; Yenglehardt, 1991; Gangi, 2004; Hunt, 1995; Larrik, 1965; Taxel, 1997; Zipes, 2001).). Ushbu sohalarning har biri alohida o'rganishga arziydigan mavzu bo'lsa-da, bu borada ularning ta'sirini tan olishdan tashqari, ularga e'tibor berilmaydi. Madaniy ta'sirlar bolalar adabiyotida o'nlab yillar davomida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi tendensiyalar asosan jamiyatimizdagi raqamli va texnologik yutuqlarga qaratilgan. Texnologik taraqqiyot matbaa va nashriyot imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Mualliflar va rassomlar chop etish imkoniyatlaridan tashqari, kompyuter va video o'yinlar, smartfonlar va planshet ilovalari kabi raqamli resurslarning tez sur'atda sensorli kirishiga o'rganib qolgan bolalarning e'tiborini jalb qilish uchun yozishmoqda. Nashriyot kompaniyalari so'zlar, uslublar, tasvirlar turi yoki formatida raqamli matnlarga taqlid qiluvchi yoki o'xshash bosma matnlarni ishlab chiqarishga harakat qilishdi. Ba'zi bosma matnlar hatto raqamli matnlardan sahifa dizayni haqidagi tushunchalarni ham oladi. Texnologik resurslar axborotni uzatish usulini o'zgartirdi va o'qituvchilar talabalarni barcha turdagi matnlardan, shu jumladan raqamli matnlardan ma'lumotlarni tushunishga tayyorlashlari kerak. Buni raqamli texnologiyalar yordamida osonlashtirish mumkin bo'lsa-da, ba'zi maktablar, sinflar yoki uylar texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan. Yaxshiyamki, ko'plab moslashuvchan savodxonlik ko'nikmalarini yuqorida tavsiflangan xususiyatlarga ega bo'lgan bosma kitoblardan foydalanish orqali rivojlantirish mumkin, masalan, raqamli matnlarni uslub va formatlashda taqlid qilish, tashkiliy naqshlarni o'zgartirish, interaktiv formatlarni o'rganish va xabarlarni turli usullarda ifodalash. Bolalarga zarur raqamli ko'nikmalarni o'rgatishi mumkin bo'lgan bosma kitoblarning mavjudligi texnologiyaga boy va texnologiyaga ega bo'lmagan muhit o'rtasidagi nomutanosiblik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'shliqni to'ldirishi mumkin.

Faqat chinakam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Demak, bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini alla-qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari

tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan ayrim asarlar ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Ammo ta'kidlash kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Bolalar she'riyatining shakllanishi folklorga borib taqalishi haqida ko'p bor aytilgan. Ammao butun dunyoda bolalar adabiyotining shaklan va flektiv jihatdan bir xillashuvi keying davrlar mahsulidir. She'riyatda qofiya va ritmning rivojlanishi o'zining tarixiy asoslariga ega bo'lib, bu o'zgarishlar adabiyotning ma'lum bir davrlarida sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy nuqtai nazar bilan olib qaralganda, so'zdagi boshlang'ich fleksiyaning o'zgarishi, urg'uli satr oxirlarining shakllanishi, so'nggi qofiya qo'shilishining badiiy jarayondagi o'rni va tizimli to'liq qofiyaning kengroq qo'llanilishi adabiy tajribalar uchun zamin yaratgan. Shu bilan birga, erkin so'z qo'llanilishining tobora ommalashuvi she'riy ifodaning xilma-xilligiga yo'l ochgan. Ushbu konseptual yondashuv XX asrda kuzatilgan she'riy eksperimentlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

XX asr she'riyati an'anaviy o'lchov va qofiyaviy tizimlardan chekinishni o'z ichiga olgan tajribalar bilan ajralib turdi. Bu davrda shoirlar an'anaviy qofiyaviy va metrik cheklovlarni buzishga intilgan holda, o'quvchilarni yangicha tovush, ritm va qofiya his qilishga undadi. Qofiya tovushi va uning emotsional ta'siri o'quvchi qabul qiladigan she'riy matnning ichki uyg'unligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Qofiya tovushini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida bolalar she'riyati sohasida ijod qilgan o'n ikki nafar yozuvchining asarlari sinchkovlik bilan o'rganilgan. Ushbu tahlil davomida qofiyaning shakllanishi, qo'llanilish chastotasi va ritmik struktura bilan o'zaro aloqasi kabi jihatlar alohida e'tiborga olinadi. Shuningdek, qofiyaning bolalar she'riyatida o'quvchilarga qanday estetik zavq va didaktik ma'no bera olishi haqida fikr yuritiladi. V.H. Auden o'zining mashhur so'zlarida shoirni «tilga ishtiyoqli inson» sifatida ta'riflagan edi. Ushbu fikr, ayniqsa, bolalar she'riyati kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar uchun she'riyat tilga bo'lgan mehrni shakllantirishning o'ziga xos vositasi bo'lib, u nafaqat savodxonlikka yo'l ochadi, balki tilning estetik go'zalligi va nozik imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi. She'riyat orqali bolaning til bilan tanishuvi chuqurroq va mazmunliroq bo'ladi, bu esa uni nafaqat o'qish va yozishni o'rganish jarayonida, balki tilning ichki ma'nolari va ifoda imkoniyatlarini kashf etishda ham qo'llab-quvvatlaydi. Bolalar uchun she'riyatning ahamiyati uning erta taqdim etilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Erta yoshda va muntazam ravishda she'rlar bilan tanishtirilgan bola til bilan mustahkam aloqa o'rnatadi. She'riyat orqali bolalar nafaqat yangi so'zlarni o'zlashtiradilar, balki bu so'zlarning ifoda imkoniyatlarini ham o'rganadilar. Bu jarayon so'zlarni oddiy yodlashdan ko'ra chuqurroqdir – u so'zning tovush, ritm, ma'no va hissiy tuslarini tushunish va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi.

She'riyatning bolaning savodxonlikka bo'lgan intilishida tutgan o'rni ham alohida ta'kidlanishga loyiq. She'riy shakllar, qofiya, ritm va obrazlarning bolalar tafakkuriga ta'siri natijasida ular tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki badiiy ifoda quroli sifatida ham ko'rishni boshlaydilar. Bu jarayon bolalarni tilning boyligini anglashga, undan zavqlanishga

va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. She’riy ifoda yordamida ular tilda yashiringan tuyg‘ular va ma’nolarni anglab, bu bilimni kundalik hayotida qo‘llay boshlaydilar.

Shunday qilib, bolalarga erta yoshdan she’riyatni tanishtirish, ularga tilning texnik qirralarini o‘rgatishdan tashqari, unda yashiringan estetik zavqni ham ochib beradi. Tilga bo‘lgan muhabbat she’riyat orqali shakllanar ekan, bola so‘zlarni quruq belgi sifatida yemas, balki ulkan imkoniyatlar manbai sifatida ko‘radi. Bu esa nafaqat uning savodxonligini oshiradi, balki hayot davomida til bilan chuqur aloqadorlikni ta’minlaydi. Ushbu ilmiy izlanishlar, qofiya tovushi orqali yetkaziladigan badiiy va pedagogik maqsadlarni yanada yaxshi anglash imkonini beradi. Tarixiy rivojlanishdan zamonaviy uslublargacha bo‘lgan jarayonni tahlil qilish orqali, she’riyatdagi qofiya va ritmning dinamikasi, ularning zamonaviy adabiy eksperimentlardagi o‘rni va o‘quvchilar didi shakllanishidagi ta’siri aniq ochib berilishi kutiladi. Shu tariqa, qofiyaning she’riyatdagi an’anaviy va innovatsion rolini mukammal anglashga xizmat qiladigan nazariy asos yaratiladi.

Binobarin, ulug‘ munaqqidlar ta’kidlaganidek, bolalar adabiyotida «borliqni va barcha mavjudotni harakatga keltirmoq zarurligi» masalasi bolalikning o‘zi qadar umrboqiylik kasb etadi. Haqiqatan, kichkintoy bola nazdida «soqov tosh ham, dala-dashtdagi xas-xashaklar ham shivirlab, oqayotgan ariqcha ham, sokin esayotgan shamol ham parvoz qilib, guldan gulga qo‘nayotgan kapalak ham muhabbat va hayot tilida so‘zlashi» tabiiy. Bolalarning lug‘at boyligi ularning saviyasini belgilovchi asosiy mezon. Ular ma’nan ulg‘aygani sari voqelikni o‘zlashirish imkoniyatlari, til boyliklari orta boradi. Jamiyat taraqqiyoti bu tamoyilni yanada orttiradi. Yosh avlodning did-saviyasi, tafakkuri o‘sishida so‘z boyligi, ularning ma’no qirralaridan kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zotan, bolalar adabiyotining tili endilikda shu jihatdan rang-baranglik kasb etayotir.

Ma’lumki, turkiy xalqlar she’riyatida tajnisli qofiyaga asoslangan lirik janr – tuyuq mavjud. Bunda shakldosh so‘zlar mo‘jazgina matn doirasida turli ma’nolarda va o‘rinli qo‘llanadi. Bu esa shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladi. Shuningdek, tuyuq ona tilining go‘zalligidan zavqlanish, uning beqiyos imkoniyatlari bilan faxrlanishga asos bo‘lar ekan, bolalarni bu badiiy san’atga o‘rgatish maqsadi ko‘zlanganiga shubha yo‘q. Ta’kidlangan so‘zdagi ikki xil ma’no – meva (olma) va harakatni bildiruvchi buyruq fe’li (olmoq) she’r mazmunini osongina yod olish bilan birga, ona tilimizning serjiloligini ham namoyon qiladi. Bu Erkin Vohidovning «Qarag‘ay» she’rida ham kuzatilgan. Unda o‘rmonda tik o‘sadigan doimo yashil turuvchi ignabargli daraxt (qarag‘ay) bilan tilimizda o‘z yoki o‘zga shaxsini bo‘rttirib ko‘rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora (akang qarag‘ay) omonimi hamda qaramoq fe’lidan yasalgan paronim so‘zidan (qaragay) o‘rinli foydalanilgan.

Bo‘yin cho‘zib Qarag‘ay,
Yon-atrofga qarag‘ay,
Der u : Barcha daraxtdan
Baland akang– Qarag‘ay.

Anglashiladiki, kelajakda o‘tkir idrokli, keng mushohadali bolalarni tarbiyalash, ona tili va o‘z yurti boyliklarining haqiqiy egasi bo‘la oladigan avlodni voyaga yetkazishda mazmundor, serqirra asarlarning ta’siri katta. Shu ma’noda, tilning aniqligi, yorqinligi, yoxud, serqirraligi

jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boraveradi. Ijodkorlarning o‘ziga xos tasvir uslubi, ramziy ko‘chimlardan foydalanish mahorati, poetik obrazlarning yangilanishi bilan badiiy so‘z kamalakday jilolanadi. «Aslida biz hayratga tushadigan narsalarnigina o‘qishimiz zarur»,– degan edi V.Gyote. Bu jihat bolalar adabiyoti uchun yanada muhim hisoblanib, ular kitobxonligining adresliligini ta’minlaydi desak, xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, she’riyat bolalarga yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni chuqur anglash imkonini beradi. Shoirning so‘z tanlashdagi ijodiy yondashuvi va she’rlarning ritmik-qofiyaviy tuzilishi bola til o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, she’riyat bolalarning nafaqat til boyligini, balki estetik didini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar o‘zlari tinglagan, o‘qigan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona-yurtga mehr-oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2000.
2. Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдлла Авлоний ижоди. – Тошкент: Фан, 2004.
3. Баракаев. Р. Ўзбек болалар адабиёти қачон майдонга келган //Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон — Иқбол, 2011.
4. Ризаев Ш. Маънавият манзиллари. – Тошкент, 2008.
5. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 144 б.